

## O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA ADYEKTIVATSIYA HODISASI

*Baxranova Dilnoza Usmonqulovna**SamDChTI Koreys filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi**Abdalimov Aziz To'liqin o'g'li**SamDChTI 2-bosqich magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda o'zbek va koreys tillarida so'z turkumlarini qiyosiy o'rganishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan o'zbek va koreys tillarida konversiya usulida boshqa so'z turkumlaridan sifatga ko'chish jarayonini har ikki tilda kuzatish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Konversiya, Substantivatsiya, Adyektivatsiya, Numerilizatsiya, Verbalizatsiya, Essivatsiya, Interyektivatsiya, Postpozitionalizatsiya, Modalyatsiya, Partikulyatsiya.

Sifat turkumiga xos bo'lgan so'zlar boshqa turkum so'zlari bilan muntazam qo'llanishi natijasida shu turkumga xos lingvistik xususiyatlarni ham o'zida kasb etishi, natijada boshqa turkum so'zlari guruhidan o'rin olganligiga guvoh bo'lamiz. Umuman, bir turkum so'zi boshqa turkum so'ziga ko'chganda bir vaqtlar bir turkumda bo'lib, til taraqqiyoti natijasida ikkinchi turkumga o'tgan so'z nazarda tutiladi. So'z turkumlari orasida ko'chish bo'yicha olim A.G'ulomovning tadqiqotlari e'tiborga molik. Bu boradagi oxirgi tadqiqotlardan biri J.Eltazarov tomonidan amalga oshirildi [1].

Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlariaro ko'chishining quyidagi turlari mavjud:

1. O'tlanish (Substantivatsiya), 2. Sifatlanish (Adyektivatsiya), 3. Sonlanish (Numerilizatsiya), 4. Olmoshlanish (Pronominalizatsiya), 5. Ravishlanish (Adverbializatsiya), 6. Fe'llanish (Verbalizatsiya), 7. Tasviriylanish (Essivatsiya) 8. Undovlanish (Interyektivatsiya), 9. Modallashish (Modalyatsiya), 10. Ko'makchilashish (Postpozitionalizatsiya). 11. Bog'lovchilashish (Konyuktionalizatsiya), 12. Yuklamalashish (Partikulyatsiya).

Har qanday tildagi so'z turkumlarining ko'chish hollatini bevosita tahlil qilayotganda bu masalaning ikki ajralmas tomoni: o'sha so'z turkumining boshqa so'z turkumlariga ko'chishi va boshqa so'z turkumlarining mazkur so'z turkumiga ko'chishini nazardan qochirmaslik kerak, chunki til birligining nutqda amal qilinishi va so'z turkumlararo aloqaning ro'yobga chiqishida ko'chishning har ikki turining qiymati tengdir [1,32].

So'zlar bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tganda mazkur so'zning grammatik mohiyati, qisman ma'nosi o'zgaradi. Sifatning otga ko'chishi ham shunday hodisadir. Masalan, qiz, o'g'il, yosh, qari, erkak, xotin, ayol, kasal, chol, kampir kabi so'zlar bir

vaqtlar sifat bo`lib, keyinchalik otga o`tgan. Bu hol, ya'ni o`tish birdaniga emas, uzoq vaqt davomida yuz beragan. Yuqoridagi kabi so`zlarning otga ko`chganini yoki ko`chayotganini ko`rsatuvchi ikkinchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishidir: yosh yigit, qari chol, chiroyli xotin.

O`zbek tilida konversiya yo`li bilan sifatga ko`chgan so`zlar quyidagilarni misol keltirish mumkun:

Juft va takroriy otlar: mosh-guruch, yo`l-yo`l, rang-baran, xilma-xil. O`zak holiday fe'llar: daydi, qari, och, chalkash, yanglish, tutash, aralash. 3. Harakat nomi shaklidagi juft fe'l: olmoq-solmoq. 4. Yaqin (aniq) o`tgan zamondagi juft fe'llar va fe'lli birikmalar: oldi-qochdi (gap), kuydi-pishdi (ayol), tug`di-bitdi (farzand), ichakuzdi (hangomalar), supraqoqdi (o`g`il, ya'ni kenja o`g`il). 5. Takroriy olmosh: man-man. 6. Takroriy son: birdan-bir [3, 48]. Koreys tilida konversiya yo`li bilan sifatga ko`chgan so`zlarni ko`rish mumkun. Juft va takroriy otlar: 형형색색 (rang-barang) 가지각색 (xilma-xil). Ot so`z turkumidagi so`zlarning sifatga ko`chishi: 시간표 (vaqt jadvali), 강철 열쇠 (temir kalit), 철 대문 (temir darvoza), 남자 친구 (o`g`il bola do`st), 여자 친구 (qizbola do`st), 손수건 (qo`l sochiq), 종이 컵 (qog`oz bakal), 금속 철사 (metall sim). O`zbek tilida fe'l so`z turkumidagi so`zlar sifat o`rnida qo`llaniladi. Bu holat sifatdosh shakli yasovchi qo`shimchalar qo`shilishi natijasida yuzaga keladi. Masalan: Aytar so`zni ayt, aytmas so`zdan qayt. Koreys tilida ham bunday holatni kuzatishimiz mumkun.

Sifat turkumga xos so`zlarning ravish bajargan vazifalarda kelishi ham keng taraqqiy etganligiga guvoh bo`lamiz. Sifat va ravishning leksik-semantik xususiyati o`zaro bitta, ya'ni "belgi" termini bilan atalsa-da, biroq xarakter e`tibori, stilistik tomoni bilan ularning belgisi bir-biridan farqlanadi. Sifat turg`un xarakterdagi belgini anglatsa, ravish esa jarayon xarakteridagi (adverbial) belgidir. Sifat anglatgan belgi – birlamchi, ravish belgisi – ikkilamchi, ya'ni belgining belgisidir. Yuqoridagi kabi, ravish sifatlar turg`un holatdagi belgini ifodalab, aniqlovchi xarakterida bo`lishi mumkin. Shu bilan birga, ko`plab sifatlar harakat jarayonining belgi ifodasini ko`rsata oladi. Masalan: "yaxshi" so`zi gapda hol bo`lib kelishi bilan xarakterlanadi. Uzoq yillar davomida mana shu masala turli munozaralarga sabab bo`lib keldi. Yanada aniqroq aytadigan bo`lsak, ko`pgina tadqiqotlarda muayyan so`zning semantik taraqqiyoti, ularning o`zaro sintaktik funktsiya almashish imkonini berish holati nazardan chetda qolib keldi. Bunda, so`z turkumlari bir-biri bilan "ittifoq tuzishi", ya'ni o`zining so`roqlarini boshqalar bilan baham ko`rishi va o`zi ham o`rni bilan boshqa so`z turkumlarining so`roqlariga javob bo`lishi tabiiy hol. Umuman, turkiy tillarda, belgi-xususiyat ma`nosidagi so`zlar ot oldidan ham fe'l oldidan ham kelib, ular ma`nosini

konkretlashtiruvchi vazifani bajaradi. Bunday holda ular soʻzning ayni bir grammatik qiyofasida boʻladi. Manbalarda “yaxshi” qabilidagi soʻzlarning feʼl oldidan kelishini konversiya (koʻchish) hodisasi sifatida ham qaraydilar. Soʻz turkumlari orasida sintaktik funktsiya almashishi, hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan hodisadir. Bu holat leksemaning til sathida keng imkoniyatliligidan darak beradi. “Yaxshi” qabilidagi leksemalarning matnda hol vazifasida qoʻllanishiga soʻzning funksional oʻzgarishi deb qaraladi. Chunki “yaxshi” soʻzi gapda hol boʻlib kelsa ham (qattiq gapirmoq, chiroyli kulmoq, dadil soʻzlamoq), odatdagi leksik maʼnosini saqlaydi.

Qiyoslash uchun “ogʻir” leksemasining feʼl bilan birika olish imkoniyatini koʻrib oʻtamiz. Oʻzbek tilida “ogʻir” leksemasining oʻndan ortiq maʼnosini izohlangan. “Ogʻir” leksemasining atash semasi “vazni katta boʻlgan, tosh bosadigan, vaznli” maʼnosini ifodalaydi. Koʻchma maʼno (konnotativ maʼno)da ogʻir leksemasi harakat belgisini ham ifodalay oladi: Ammo mana shu roʻyirostlik Lolo uchun ogʻir kechadi. (H.Nazir) Bu holat (ish- harakat belgisini ifodalagan sifatlar)ni ayrim tadqiqotchilar adverbializatsiya hodisasi sifatida belgilaydilar. Shuningdek, bu yil bahor nihoyatda yaxshi keldi. Shirin juda chiroyli kuladi (N.Hikmat) kabi gaplarda “nihoyatda yaxshi”, “juda chiroyli”, sifatlari grammatik jihatdan feʼllarga bogʻlanib, gapda hol vazifasida kelgan. Birinchi gapdagi “nihoyatda yaxshi” soʻzi grammatik jihatdan feʼlga bogʻlanib, gapda hol vazifasida kelgan.boʻlsa ham, mantiqan subyektning – “bahor”ning belgisini bildiradi bu belgi harakatga ham koʻchiriladi. Yuqoridagi misollardan kuzatiladiki, baʼzi sifatlar oʻz vazifasi doirasini birmuncha kengaytirgan. Buni sifat leksemalarning nutqdagi imkoniyati sifatida qabul qilish lozim. Ish harakat belgisini bildirgan har qanday soʻzga ravish deb qarash ayni soʻz turkumiga leksik va sintaktik xususiyatlarni zoʻrma-zoʻrakilik bilan tirkashidan oʻzga narsa emas. Bu esa soʻz turkumlari tasnifida mantiqiy toʻgʻri tasnif asosini buzishga olib keladi. [4, 110].

Aytish mumkinki, oʻzbek tilida sifat leksemalarning semantik tuzilishidagi konnotativ maʼnolarning oʻrni va uning oʻziga xos tomonlarini aniqlash boʻyicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunday holat ham sifat va ravish turkumi chegarasini aniqlashtirishga koʻmak beradi. Ish-harakat tarzini ifodalash barcha sifatlarga xos xususiyat emas, albatta, yaʼni har qanday sifat ham ish- harakatning belgisini bildirmaydi. Asosan, xarakter-xususiyat (yaxshi, yomon, qiziq ruhli, yorqin qattiq yumshoq toza, chiroyli, dadil), holat (erkin, ozod, tutqun, toʻliq), vertikal hajm (past, baland), vertikal shakl (tik), umumiy shakl (egri, toʻgʻri), gorizont shakl (yopiq), umumiy hajm (katta, kichik), ichki hajm (keng, tor, chuqur), masofa (uzoq-yaqin), muddat (abadiy) va harorat (issiq, sovuq, illiq) belgisini bildiruvchi qismigina gapda hol vazifasida qoʻllanadi. Oʻz semantikasiga koʻra “yaxshi” qabilidagi soʻzlar doim mavhum tushunchani anglatadi. Yuqoridagi soʻzlar nutq jarayonida hol vazifasida qoʻllanishi bilan mavhumlik yana oshadi. Shu yoʻl bilan fikrning grammatik ifodasi mustahkamlashadi va “yaxshi” qabilidagi soʻzlarning isteʼmol doirasi

kengayadi. Kelishik shaklidagi sifatlar ham nutqimizda keng qo`llanadi. Masalan, yangidan, eskidan, chindan, yolg`ondan kabilar kelishik shaklidagi sifatdan hosil bo`lgan holat ravishlaridir. Mazkur so`zlarda kelishik qo`shimchasi o`z tabiatini mutlaqo o`zgartirgan.

“O`zbek tilining izohli lug`ati”da ham “yaxshi” qabilidagi bir qator sifatlar ravish deb berilganligiga guvoh bo`lish mumkin. Lug`atda sifatlar ham ravishlardek ish-harakat belgisini ifodalay olish imkoniyatiga egaligi, ya`ni sifatning semantik taraqqiyoti ularda o`zaro sintaktik funktsiya almashish imkonini berishi nazardan chetda qolganga o`xshaydi. Mana shu holat fe`l bilan birikib kela olishi tabiatiga ega bo`lgan holat, xususiyat bildiruvchi sifatlarning lug`atda ravishlar deb izohlanishiga sabab bo`lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, sifatning taraqqiyoti boshqa turkumlar bilan uzviy bog`liq. Ot asosidan ajralib chiqqan, til taraqqiyoti natijasida mustaqil rivojlanishga ega bo`lgan mazkur turkum so`zlarining imkoniyat doirasi kengayib borayotganligiga guvoh bo`lamiz. Bu holni sifatda keng kuzatiladigan polisemiya bilan ham dalillash mumkin. Bundan tashqari, yordamchi leksemalar tarkibida ham bir qator sifatlarni uchratamiz. Bu holat ham (grammatikalizatsiya) sifat turkumining taraqqiyotidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. Т.: Ўзбекистон, 1992. 339 б.

2. Холмуродов А. Креолизованные и некреолизованные подсистемы современного узбекского словообразования. Т.: Фан, 1989. –143 с.

3. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д.

Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т: Шарқ, 2001. 164 б

4. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номз. дис. автореф. Самарқанд: 2004. 22 б.

5. 의이익섭, 채완, 학연사. “국어문법론강”. 1999

6. 남기심, 고영근, 탑출판사. “표준 국어문법론”. 1993

#### Foydalanilgan internet saytlari

7. www.google.com.

8. www.dbpia .go.kr

9. www.pusan.ac.kr

10. cyberlenike.com

11. ko.m.wiki.peoia.org

12. http://pulchrus.byus.net